<b>Narimonov Sayfullaxon Sunnatillo o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Hududlar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsiya jozibadorligini oshirishning nazariy jihatlari .....	1135
<b>Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi</b> , tayanch doktorant	
Kichik biznes uchun muqobil moliyalashtirish manbalari va vositalari: xorijiy tajriba.....	1142
<b>Xolikov Sarvar Xayitbayevich</b>	
Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda va sug'urta portfeli muvozanatida anderrayting xizmati .....	1147
<b>Sayfullo Mirzoyev</b> , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonning elektron tijorat strategiyasi: xorijiy bozorlarda raqobat qilishning asosiy yo'llari.....	1153
<b>Baymuradov Shoxrux Maximovich</b> , PhD	
Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda marketingning roli.....	1158
<b>Eshmirzayev Faruddin Ilxomjonovich</b> , tayanch doktorant, <b>Salimova Zaxro Sobirjon qizi</b> , magistr	
Barqaror rivojlanish konsepsiyasini tadqiq qilish yondashuvlari tahlili.....	1164
<b>Xasanova Nasiba Nazar qizi</b> , tadqiqotchi	
Oziq-ovqat mahsulotlari bozorini rivojlantirishda marketing tadqiqotlari metodologiyasi .....	1170
<b>Meyliyeva Dilnoza Boboniyoq qizi</b>	
Концепция маркетинговой стратегии развития региона и ее теоретические основы.....	1176
<b>Холмуротова Диёрахон Ибрагимовна</b>	
Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga xalqaro kapital bozoridan molivaviy resurslar jalb qilish amaliyotining tahlili .....	1179
<b>Muydinov Shohruh Najmaddin o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchi	



# AKSIYADORLIK JAMIYATLARI FAOLIYATIGA XALQARO KAPITAL BOZORIDAN MOLIYAVIY RESURSLAR JALB QILISH AMALIYOTINING TAHLILI

Muydinov Shohruh Najmuddin o'g'li  
Toshkent Moliya instituti mustaqil izlanuvchisi



**Annotatsiya:** Maqolada mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlariga kapital bozoridan moliyaviy resurslar jalb qilishning mohiyati, amaliyoti, tahlili va hozirgi holat bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Mavzuga oid olimlarning ilmiy nazariy qarashlari tahlili qilinib, aksiyadorlik jamiyatlar faoliyatiga moliyaviy resurlar jalb qilish buyicha amaliy xulosa va takliflar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Aksiya, korpotiv, moliya, bozor, bank, investitsiya, tijorat, kredit, emissiya, kapital, globallashuv, fond, birja.

**Abstract:** The article provides information on the nature, practice, analysis and current state of attracting financial resources from the capital market to joint-stock companies in our country. The scientific theoretical views of scientists on the topic are analyzed, and practical conclusions and proposals are presented regarding the involvement of financial resources in the activities of joint-stock companies.

**Key words:** Stock, corporate, finance, market, banking, investment, commerce, credit, emission, capital, globalization, fund, exchange.

**Аннотация:** В статье представлена информация о характере, практике, анализе и современном состоянии привлечения финансовых ресурсов с рынка капитала в акционерные общества в нашей стране. Проанализированы научно-теоретические взгляды ученых на данную тему, а также представлены практические выводы и предложения относительно привлечения финансовых ресурсов в деятельность акционерных обществ.

**Ключевые слова:** Акции, корпорации, финансы, рынок, банковское дело, инвестиции, коммерция, кредит, эмиссия, капитал, глобализация, фонд, обмен.

## KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda ichki manbalar hisobiga moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi, biroq moliyaviy resurslarga bo'lgan talabning ortib borishi xalqaro kapital bozoridan moliyaviy resurslarni jalb qilishning zaruratini vujudga keltiradi. Bugungi kunda O'zbekiston mustaqillik tarixida ilk bor korporativ yevroobligatsiyalarini xalqaro fond birjasida joylashtirib bular bo'yicha dastlabki ijobji natijalarga erishildi.

Mamlakat yoki kompaniyalar tomonidan yirik investitsion loyihalarni va sohalarni moliyalashtirish maqsadida xorijiy fond birjalarida xorijiy valyutalarda joylashtiriladigan obligatsiyalar yevroobligatsiyalar deviladi. Mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikning mustahkamligini ta'minlashga hamda xususiy, shu jumladan, xorijiy investitsiyalar uchun respublikaning investitsiya muhitini tubdan yaxshilashga qaratilgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar va tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Biroq, mamlakatni xalqaro kapital bozorlariga integratsiyalashtirish ishlari talab darajasida olib borilmayotganligi tashqi moliyalashtirishning qo'shimcha manbalarini jalb qilish va ularning hajmlarini kengaytirish imkoniyatlarini cheklamoqda. O'tkazilgan o'rganishlar, O'zbekistonning yetakchi banklari va yirik korxonalari tomonidan korporativ reytinglarni olish hamda davlat kafolatisiz xorijiy investitsiya va qarzlarni jalb qilish bo'yicha respublikaning imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradigan mamlakatning suveren kredit reytingini olish zarurligini ko'rsatmoqda. Ta'kidlash lozimki, keyingi yillarda ushbu yo'nalishlar bo'yicha mamlakatimizda keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, 2019-yilning fevral oyida dunyoning eng obro'li birjalaridan hisoblangan London fond birjasida O'zbekiston tarixida birinchi marta yevrobondlar, ya'ni yevroobligatsiyalarini bozorga joyladi. Bunda 5 yillik 500 million dollarlik yevrobondlarni 4,75 foizdan, 10 yillik 500 million dollarlik yevrobondlarni esa 5,375 foizdan joylashtirdi. Qarz obligatsiyalarini qaytarish muddatlari 2024-yil va 2029-yillar qilib belgilandi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Toshmatov Sh.A. O'zbekiston xalqaro obligatsiyalarining jahon moliyaviy bozorlarida joylashtirilishi: risk va proqnozlar. <http://review.uz/>




Avvaliga kuponlarning diapazoni 5,625 – 5,75 foiz hamda 6 foiz miqdorida belgilangan edi, ammo talabning yuqoriligi sababli O'zbekiston foiz stavkalarini qayta ko'rib chiqib, ularni 4,75 foiz va 5,375 foizgacha tushirdi. Obligatsiyalarni xarid qilishga taxminan 150 institutsional investorlardan 3,8 milliard dollarlik taklif kelib tushdi. Davlatlar nuqtayi nazardan, xarid qilingan 5 yillik va 10 yillik obligatsiyalarning katta qismi Buyuk Britaniya investorlari (tegishincha 39 foiz va 32 foiz), amerikalik investorlar esa 23 va 31 foiz obligatsiyalarni xarid qildi. Yevropalik investorlar 32 foiz va 27 foiz, Osiyo, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlari investorlari esa 6 va 10 foizni tashkil qildi.

Yevrobondlarning aksariyatini – 75 % va 78%ini boshqaruva fondlari, 20% va 16 foizini sug'urta kompaniyalari va pensiya fondlari, 5% va 6% foizini banklar xarid qildi. Jami joylashtirilgan 1000,0 mln dollarlik xalqaro obligatsiyalar uchun dastlabki besh yilda to'lanadigan bir yillik foizli xarajatlar 56,63 mln dollarga teng, keyingi besh yilda faqat 10 yillik muddatli xalqaro obligatsiyalar bo'yicha foizli to'lovlar amalga oshirilib, har yillik miqdori 26,88 mln dollarni tashkil etadi. 10 yil davomida ushbu xalqaro obligatsiyalar bo'yicha to'lanadigan foizli xarajatlarning umumiy miqdori 387,50 mln dollarga teng.

Tashqi moliyalashtirish hajmini kengaytirish va manbalarini diversifikatsiyalash, xorijiy investorlar uchun mamlakatning jozibadorligini oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida 2018-yil 21-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tashqi moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3877-sonli qarori qabul qilindi<sup>2</sup>.

Mamlakatimiz qonunchiligiga muvofiq, xalqaro yevroobligatsiyalardan kelib tushgan moliyaviy resurslar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan tegishli me'yoriy hujjatlarga asosan aniq maqsadlar bo'yicha taqsimlanadi. Shunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining suveren yevroobligatsiyalari muvaffaqiyatli joylashtirilgach, ulardan kelib tushgan moliyaviy mablag'larni oqilona joylashtirish maqsadida 2019-yil 2-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining ilk suveren xalqaro obligatsiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag'lardan samarali foydalanish to'g'risida" PQ-4258-sonli Qarori<sup>3</sup> qabul qilindi.

Qarorga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining xalqaro obligatsiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag'lardan samarali foydalanish, shu jumladan, mamlakat va xalqimiz farovonligini yanada oshirishda strategik ahamiyatga ega bo'lgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy bankining O'zbekiston Respublikasining xalqaro obligatsiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag'larni quyidagi yo'nalish va maqsadlarga yo'naltirish to'g'risidagi takliflari ma'qullandi (2.1-rasm):



**2.1-rasm:** Xalqaro obligatsiyalarni joylashtirishdan tushgan mablag'lardan tarmoq va sohalar bo'yicha taqsimlanishi, foizda<sup>4</sup>

2 [https://lex.uz/docs/3836474-O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-iyuldag'i "Tashqi moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 3877-sonli Qarori](https://lex.uz/docs/3836474-O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-iyuldag'i ).

3 [https://lex.uz/docs/4266910-O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-apreldagi "O'zbekiston Respublikasining ilk suveren xalqaro obligatsiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag'lardan samarali foydalanish to'g'risida" PQ-4258-sonli Qarori](https://lex.uz/docs/4266910-O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-apreldagi ).

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-apreldagi PQ-4258-sonli Qarori asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



2.1-rasm ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, xalqaro kapital bozoridan jalg qilingan moliyaviy mablag'larning 89% i yoki 889,2 million AQSH dollarini auksion savdolari o'tkazish orqali tijorat banklari depozitlariga tegishli shartlarga muvofiq joylashtirilgan. Bundan tashqari 2% yoki 20 million AQSH dollarini "Agrobank" ATBga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan shartlarga muvofiq subordinar qarz sifatida kredit liniyasini ochish yo'li orqali hamda 9% i yoki 89,9 million AQSH dollarini "Navoiy kon-metallurgiya kombinasi" davlat korxonasiga, istisno tariqasida, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan xorijiy valyutada budget ssudasi sifatida joylashtirilgan.

2.1-rasm bo'yicha tahlil natijalarini davom ettirar ekanmiz, har bir yo'nalish va soha bo'yicha ajratilgan mablag'lar aniq shartlarga asoslangan bo'lib, ushu shartlar jalg qilingan mablag'lardan foydalanishda samaradorlikka ega bo'lishini alohida ta'kidlab o'tmoqchimiz. Shuning uchun yuqorida uchta yo'nalish bo'yicha ajratilgan mablag'larning asosiy shartlari va jalg qilingan mablag'larni qoplash bo'yicha asosiy jihatlarni tahlil qilib chiqamiz. Demak, xalqaro kapital bozoridan jalg qilingan mablag'larning asosiy qismi 889,2 mln. AQSH dollarini miqdoridagi mablag'larni auksion savdolari o'tkazish orqali tijorat banklari depozitlariga quyidagi shartlarga muvofiq joylashtirilgan (2.1-jadval).

**2.1-jadval:** Xalqaro kapital bozoridan jalg qilingan mablag'larning auksion savdolari o'tkazish orqali tijorat banklari depozitlariga joylashtish shartlari<sup>5</sup>

Depozit muddati	Depozitga joylashtirilagan mablag'larning maksimal miqdori	Minimal yillik foiz stavkasi	Foiz to'lovleri muddati	Depozitni qaytarish muddati
5 yillik depozit	459,6	5,25%	har 6 oyda (10-fevral / 10-avgust)	10.02.2024-y.
10 yillik depozit	429,6	5,875%	har 6 oyda (10-fevral / 10-avgust)	10.02.2029-y.
Jami	889,2	-	-	-

10 yillik muddatga depozitga joylashtirilgan mablag'larning miqdori 426,6 mln. dollarni tashkil etgan bo'lsa, bular bo'yicha minimal yillik foiz stavka 5,875% dan iborat. Depozitni qaytarish muddati esa 2029-yilning fevral oyi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining xalqaro obligatsiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag'larni 20 mln. AQSH dollarri "Agrobank" ATBga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan subordinar qarz sifatida kredit liniyasini ochish sharti asosida taqdim etilgan. Mazkur kredit 10 yillik muddatga mo'ljallangan bo'lib, kredit bo'yicha yillik foiz stavkalar 5,875% ni tashkil etib, foiz to'lovleri 1 yilda ikki marotaba hisoblab boriladi. Kredit mablag'larini qaytarish muddati 2029-yilning fevral oyi qilib belgilangan (2.2-jadval).

**2.2-jadval:** Xalqaro obligatsiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag'larni Agrobankga subordinar qarz sifatida kredit liniyasini ochish shartlari<sup>6</sup>

10 yillik kredit liniyasi			
Kredit hajmi (mln. AQSH dollarri)	Yillik foiz stavkasi	Foiz to'lovleri muddati	Kreditni qaytarish muddati
20	5,875%	har 6 oyda (10-fevral / 10-avgust)	10.02.2029-y.

Ta'kidlash lozimki, Agro bank ATB mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan yirik moliya sektori kompaniyalaridan biri bo'lib, iqtisodiyotning turli sohalarini kredit mablag'larini bilan ta'minlashda alohida o'ringa ega. Agrobank o'z faoliyati davomida asosiy urg'uni iqtisodiyotning agrar sektorini moliyalashtirish, aholining bo'sh pul mablag'larini bank pul aylanmasiga jalg qilish, filiallar tarmog'i, xizmat turlari hamda mijozlari sonini ko'paytirish, bankning belgilangan beznes-rejsi va budjetining asosiy parametrlarini bajarishga qaratgan. Jalg qilingan mablag'larning minimal foiz stavkalaridan kelib chiqqan holda, xalqaro kapital bozoridan jalg qilingan mablag'larning samaradorligini ta'minlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda mamlakatimiz sanoat tarmog'ida yetakchi o'rinnlardan birini egallab kelayotgan Navoiy KMK faoliyatni moliyalashtirish va ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiyalash, sohani rivojlantirishda yangi innovatsion texnika va texnologiyalarni joriy etish maqsadida keng ko'lamlari ishlari amalga oshirib kelinmoqda. Aynan shu kabi maqsadlarning uzviy davomi sifatida xalqaro kapital bozoridan jalg qilingan mablag'larni ma'lum

5 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-apreldagi PQ-4258-tonli Qarori asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

6 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-apreldagi PQ-4258-tonli Qarori asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



miqdorini "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" davlat korxonasiga, istisno tariqasida, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan xorijiy valyutada budjet ssudasi ajratish belgilangan. Jalb qilingan jami 89,9 mln. AQSH dollari miqdoridagi mablag'larning 39,95 mln. AQSH dollari 5 yil muddatga muddatga 5,75% yillik foiz to'lov miqdorida 1 yilda ikki marotaba hisoblash sharti asosida hamda 49,95 mln. AQSH dollari 10 yil muddatga muddatga 6,375% yillik foiz to'lov miqdorida 1 yilda ikki marotaba hisoblash sharti asosida ajratilgan (2.3-jadval).

**2.3-jadval:** Xalqaro obligatsiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag'larni "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" davlat korxonasiga xorijiy valyutada budjet ssudasi ajratish shartlari<sup>7</sup>

Jami ssuda hajmi	5 yillik ssuda				10 yillik ssuda			
	hajmi	yillik foiz stavkasi	foiz to'lovlarini muddati	qaytarish muddati	hajmi	yillik foiz stavkasi	foiz to'lovlarini muddati	qaytarish muddati
89,9	39,95	5,75%	har 6 oyda (10-fevral / 10-avgust)	10.02.2024-y	49,95	6,375%	har 6 oyda (10-fevral / 10-avgust)	10.02.2029-y.

2020-yil 6-martda O'zbekiston Respublikai Prezidentining PQ-4629-sonli "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" davlat korxonasini isloq qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, "Navoiy KMK" davlat korxonasi nomlanishi tabiiy uran va nodir metallarni qazib olish va qayta ishslash korxonasi – "Navoiyuran" davlat korxonasiga o'zgartirildi.

2018-yilning dekabr oyida O'zbekiston Respublikasining suveren kredit reytingini olishi hamda 2019-yilning fevral oyida 1 mlrd. AQSH dollari hajmidagi ilk suveren xalqaro obligatsiyalarning jahon moliyaviy bozorlarida muvaffaqiyatlari joylashtirilishi mamlakatning xalqaro kapital bozori bilan o'zaro munosabatlarning yo'liga qo'yilganligini bildiradi. Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, mamlakatimizda yetarli darajada fiskal zahiralar mavjudligi va makroiqtisodiy barqarorlik ta'minlanayotgan bir vaqtida suveren xalqaro obligatsiyalarni xalqaro bozorga muomalaga chiqarish zamirida qo'shimcha mablag'larga ehtiyojdan tashqari, quyidagi strategik maqsadlar yotadi:

1. Suveren xalqaro obligatsiyalarning jahon xalqaro moliyaviy bozorlarida joylashtirilishi mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatining xalqaro maydonda e'tirof etilishiga erishish va xorijiy investorlar uchun respublikamizda investitsion riskni to'g'ri baholanishiga erishish.

Ta'kidlash joiz, O'zbekiston Respublikasining 5 va 10 yillik suveren xalqaro obligatsiyalari bo'yicha yillik foiz to'lovlarini mos ravishda 4,75% va 5,325% darajasida belgilanishi xalqaro investorlar tomonidan O'zbekiston bilan bog'liq risklarning mo'tadil darajada baholanishini ko'rsatmoqda.

2. Suveren xalqaro obligatsiyalarning xalqaro bozorda muvaffaqiyatlari joylashtirilishi O'zbekiston uchun bozorda "benchmark" yaratib, yirik davlat korxonalari va banklari uchun jahon moliya bozorlarida o'z obligatsiyalarini joylashtirish va shu asosda investitsion loyihalarni mustaqil moliyalashtirish uchun zamin yaratdi.
3. Suveren xalqaro obligatsiyalarni xarid qilgan investorlar tomonidan respublikamizda amalga oshirilayotgan o'zgarishlarni diqqat bilan kuzatib borishlari mamlakatimiz iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan islohotlarga nisbatan shaffoflik va prudensial yondashuvlarni amalga oshirish zaruratin keltirib chiqaradi. Suveren xalqaro obligatsiyalarning ikkilamchi bozordagi kotirovkasi barqaror iqtisodiy siyosat yuritishning "o'Ichovi" bo'lib xizmat qiladi.
4. Suveren xalqaro obligatsiyalar chiqarilgunga qadar O'zbekistonga jalb etilgan kreditlarning asosiy qismi xalqaro moliya institutlari va boshqa rasmiy tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelgan. Bunday kreditlarning hajmi, ishlashish yo'naliishlari va muddati cheklangan bo'lib, ko'p hollarda bular bo'yicha davlatga qo'shimcha shartlar va majburiyatlar yuklanadi. Suveren xalqaro obligatsiyalarni esa yuzlab investorlar qo'shimcha shart va majburiyatlar qo'ymay sotib oladilar. Ushbu investorlar xususiy sektor vakillari bo'lib, Suveren xalqaro obligatsiyalarni chiqarish O'zbekiston uchun investitsiya manbalarini diversifikasiya qilishga xizmat qiladi.

Xalqaro kapital bozori va unda amal qiladigan moliyaviy instrumentlarga ixtisoslashuv xos bo'lsada, so'nggi yillarda birjalarning o'zaro qo'shilishi va qo'shib olinishi natijasida ularning yiriklashuvi va xalqaro platformalarning universallashuviga olib keldi, bu bilan bozor ishtirokchilarining moliyaviy resurslarni jalb qilishdagi tranzaksion xarajatlari va risklarini minimallashtirishga erishildi.

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-apreldagi PQ-4258-sonli Qarori asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



“Toshkent” Respublika fond birjasining nafaqat yetakchi fond birjalaridan balki Osiyo mintaqasidagi aksariyat fond birjalaridan sezilarli darajada orqada qolishi milliy iqtisodiyot faoliyatining umumiyligi muammolarini, ichki kapital bozori muammolarini keltirib chiqardi va buning natijasida iqtisodiyotning korporativ sektoriga moliyaviy resurslarni jalg qilish imkoniyatlari cheklanib qoldi.

Fond birjalarida muomalada bo‘lgan aksiyalardan tashqari, O‘zbekiston korporativ sektori va xalqaro kapital bozori o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda korporativ va davlat obligatsiyalari ko‘rinishidagi qimmatli qog‘ozlar muhim rol o‘ynaydi. Umuman olganda, rivojlanayotgan mamlakatlar qimmatli qog‘ozlar bozoridagi holat bo‘yicha quyidagilarni ta’kidlash mumkin:

*Birinchidan*, qarz qimmatli qog‘ozlar bozorining notejis rivojlanishi. Rivojlanayotgan mamlakatlar bozorlarining o‘sishi tahlil qilingan davrda 212% ni, ushbu ko‘rsatkich rivojlangan mamlakatlarda 55% ni tashkil etdi va bu asosan rivojlanayotgan mamlakatlardagi investitsion faoliyit hisobiga yuz berdi. Rivojlanishning beqa-rorligi rivojlangan mamlakatlar qatori ba’zi rivojlanayotgan mamlakatlarga ham xos holatdir. Masalan, Xitoy qarz bozorining o’n karra o‘sishi holatida, Braziliya, Rossiya, Ispaniya kabi mamlakatlarda ushbu bozor o‘sishi ikki-uch karrani tashkil etdi.

*Ikkinchidan*, rivojlanayotgan bozorlar guruhi bo‘yicha xalqaro qarz qimmatli qog‘ozlar bozorining umumiyligi hajmi ko‘rib chiqilayotgan davrda rivojlangan davlatlarning qarz qimmatli qog‘ozlar bozori umumiyligi hajmining taxminan 18% ni tashkil etdi.

*Uchinchidan*, qarz qimmatli qog‘ozlar bozori hajmining o‘sishi dinamik (intensiv, barqaror) tavsifga ega bo‘lib: besh yillik hajmlar sezilarli darajada oshib, buning natijasida ularning hajmi YAIMning 1,5 hajmidan oshadi.

*To‘rtinchidan*, rivojlangan mamlakatlar qimmatli qog‘ozlar bozorining qarz segmentida o‘sishning yuqori cho‘qqisi 2012-yilga to‘g‘ri keldi va bu yevrohududdagi iqtisodiy inqirozning qaytarilishi bilan bog‘liq bo‘ldi. Qarz qimmatli qog‘ozlarining hajmi va iqtisodiy o‘sish sur’ati, milliy iqtisodiyot hajmlarining sezilarli darajadagi korrel-yatsiyasi kuzatildi. Qarz segmentidagi o‘sishi 2015-yilga kelib mo‘tadillashib, bu holat 2019-yilgacha kuzatildi. 2020-yilda Xitoya boshlangan va deyarli butun dunyo mamlakatlarini qamrab olgan koronavirus pandemiyasi mamlakatlar iqtisodiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Butunjahon savdo tashkilotining prognozlariga ko‘ra pandemianing mamlakatlar iqtisodiyotiga yetkazayotgan salbiy ta’siri 4 yil davomida saqlanib qoladi. Ushbu holat o‘z o‘rnida kapital bozoriga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda va shu bilan birga ushbu bozor xizmatlariga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda.

*Beshinchidan*, O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozori qarz sektorining hajmi uning yetarlicha rivojlanmagan darajasini ko‘rsatmoqda va bu korporativ sektor tomonidan moliyaviy resurslarni jalg qilish uchun kam imkoniyatlarni mavjud ekanligini, shuningdek, iqtisodiyotning ushbu sektorida rentabellik nisbatan past darajada ekanligini ko‘rsatadi.

Iqtisodiyotning real sektori korxonalariga xalqaro kapital bozoridan moliyaviy resurslarni jalg qilish amaliyotini tahlil qilar ekanmiz, mazkur jarayonlarda xalqaro yirik moliya institutlari Jaxon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki kabilarning ulushi yuqori ekanligini ta’kidlash lozim. Keyingi yillarda mamlakatimiz korporativ sektorida faoliyat yuritayotgan yirik aksiyadorlik kompaniyalarining investitsion dasturlarini moliyalashtirish va birgalikdagi loyihalarni amalga oshirishda Osiyo taraqqiyot banking mablag‘lari bilan ishtiropi yuqori o‘rinni egallab kelmoqda. 2015-2019-yillar mobaynida korporativ sektorning turli tarmoqlari va yo‘nalishlari 2020 600 mln. AQSH dollarini miqdorida mablag‘lar yo‘naltirilgan bo‘lsa shundan yuqori ulushni 500 mln. AQSH dollarini qishloq joylarida arzon-uy joylarni qurilish sohasida faoliyat yuritayotgan kompaniyalar xissasiga to‘g‘ri kelmoqda (2.4-javdal).

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, qarz va grant mablag‘lari hisobiga elektr energiya sarfi hisobini takomillashtirish maqsadlariga 2015-2019-yillar mobaynida jami 300 mln. AQSH dollarini miqdorida mablag‘lar jalg qilingan. Bundan tashqari elektr energiya ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida umumiyligi qiymati 1,0 mlrd AQSH. dollaridan ortiqroq mablag‘lar jalg qilingan. Shundan 640,0 mln. AQSH dollarini birgalikdagi moliyalashtirish asosida amalga oshirilgan loyihalarni hisoblanadi.

O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-oktyabrdagi PQ-3981-sonli “Elektr energetikasi taromog‘ini jadal rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq “Andijon, Namangan, Farg‘ona, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida elektr energiyasi iste’molini nazorat qilish va hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimini (ASKUE 4-faza) joriy etish” loyihasini amalga oshirish uchun ko‘zdautilgan Osiyo taraqqiyot banking 300 mln. AQSH dollarini miqdorida qarz mablag‘lari hisobiga respublikaning boshqa hududlarida EEHO va NQATni joriy etish loyihasini amalga oshirish belgilangan.



**2.4-jadval:** 2015-2019-yillar mobaynida iqtisodiyotning korporativ sektoriga Osiyo taraqqiyot banki tomonidan jalb qilingan moliyaviy resurslarning tarmoqlari kesimida tahlili (mln. AQSH dollarida)<sup>8</sup>

№	Loyihalarning nomlanishi va yo'nalishi	Moliyaviy resurslar hajmi	Birgalikda moliyalashtirish miqdori	Birgalikdagi moliyalashtirish turi
1	Elektr energiyasi hisobini takomillashtirish - 4 bosqich	300,0	70,0	Qarz, grant va aralash ko'rinishda
2	Qishloqlarda arzon uy-joylar dasturi	500,0	300,0	Qarz, grant va aralash ko'rinishda
3	Amu Buxoro irrigatsiya tizimini qayta tiklash	220,0	100,0	Qarz, grant va aralash ko'rinishda
4	Iqtisodiy boshqaruvni takomillashtirish dasturi	300,0	670,57	Qarz, grant va aralash ko'rinishda
5	Qishloq joylarni kompleks rivojlantirish uchun uy-joy qurilishi - 3 Transh	100,0	100,0	Qarz, grant va aralash ko'rinishda
6	Elektr energiya ishlab chiqarish samaradorligini oshirish	450,0	640,0	Qarz, grant va aralash ko'rinishda
7	Savdoni moliyalashtirish dasturi	149,63	156,91	Suveren bo'Imagan ko'rinishda
<b>Jami</b>	<b>2019,63</b>	<b>2037,48</b>		

Osiyo taraqqiyot bankining qarz mablag'lari hisobiga 2021-yil 1-dekabrga qadar respublikaning barcha hududlarida EEHO va NQATni joriy etishni yakunlash bo'yicha zamonaviy hisoblash qurilmalari va qo'shimcha asbob-uskunalarini sotib olish yuzasidan xalqaro tender savdolarining o'tkazilishini jadallashtirish masalasi Qurorda alohida vazifa sifatida belgilangan. O'z navbatida, "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ mahalliy ishlab chiqaruvchilardan hisoblash qurilmalari va qo'shimcha asbob-uskunalarini sotib olish jarayonida, ularning texnik parametrlerining xalqaro tender savdolarini o'tkazish uchun tayyorlangan tender hujatlari talablariga muvofiqligini ta'minlash qayd etilgan.

Iqtisodiyotning korporativ sektoriga xalqaro kapital bozoridan moliyaviy resurslar jalb qilish amaliyotini tahlil qilar ekanmiz, xalqaro moliya tashkilotlari bilan istiqbolli loyihalarning holatini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Osiyo taraqqiyot banki (OTB) iyun oyining oxirida O'zbekiston bilan 2019-2023-yillarda hamkorlik qilish bo'yicha yangi strategiyani tasdiqladi. Ushbu besh yillik reja O'zbekiston iqtisodiyotining inklyuziv va bozor iqtisodiyoti yo'nalishida o'sishiga ko'maklashish uchun hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Umuman olganda, bank 2018-yilda umumiy qiymati 21,6 mlrd AQSH dollariga teng yangi turdag'i kreditlar va grantlarni ajratdi, ularning 1,1 mlrd dollari O'zbekistonga berildi. OTB ga 68 ta mamlakat a'zo bo'lsada, o'tgan yilda kreditlarning qariyb 5 foizi O'zbekistonda iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilma loyihalarini rivojlantirish uchun ajratilgan. So'nggi yillarda xalqaro moliya institutlarining O'zbekistondagi faoliyati ancha kengaydi. Ularning respublikada amalga oshirilayotgan turli loyihalar uchun ajratgan kredit va grantlar ko'rinishidagi investitsiyalari hajmi bir necha barobarga oshdi.

Yuqorida 2.4-jadvalda OTB tomonidan iqtisodiyotning turli tarmoqlari bo'yicha loyihalarning ulushini tahlilini ko'rib chiqqan bo'lsak, quyidagi rasm ma'lumotlari orqali Yevropa taraqqiyot va tiklanish banki va Jaxon bankidan jalb qilingan mablag'lar dinamikasini ko'rib chiqamiz (2.4-rasm).



**2.4-rasm:** Xalqaro kapital bozoridan iqtisodiyotning korporativ sektoriga jalb qilingan mablag'lar tahlili (2019-yil 30-iyun holatiga)<sup>9</sup>


8 <https://www.adb.org/-/Osiyo taraqqiyot bankining yillik hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi>.

9 <https://www.adb.org/ru/news/adb-uzbekistan-renew-development-partnership-new-5-year-strategy-ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi>.



Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan ajratilgan jami kreditlarning umumiyligi xajmi 1569 mln. dollarni tashkil etgan bo'lsa, shundan bugungi kundagi kredit portfelining umumiyligi miqdori 700 mln. dollarni tashkil etmoqda. Jalon banki tomonidan amalga oshirilgan moliyalashtirishning umumiyligi summasi 6741 mln. dollarni tashkil etgan bo'lsa, amaldagi loyihalalar bo'yicha moliyalash summasi 4338 mln. dollardan iborat bo'lganligini ta'kidlashimiz mumkin. OTB tomonidan Markaziy Osiyodagi moliyalashtirilayotgan loyihalarni tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi masalasiga kelsak, 80% loyihalalar to'rtta yo'naliish bo'yicha amalga oshirilmoqda: energetika, transport, moliya sektori va davlat boshqaruvi sohasida.

Jahon bankingin 1994-yildan boshlab respublikadagi loyihalarni moliyalashtirish hajmi dinamikasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 2011-yildan boshlab o'sish sur'ati yaqqol ko'rindi. 1994-yildan 2010-yilgacha Jahon bankidan jalb qilingan mablag'larning o'rtacha miqdori yiliga qariyb 68 mln AQSH dollarini tashkil etgan. So'nggi 8 yilda esa o'rtacha yillik summa qariyb 7 baravarga o'sgan (2.5-rasm).



**2.5-rasm:** Iqtisodiyotning korporativ sektori aksiyadorlik jamiyatlariga Jaxon bankidan jalb qilingan mablag'lar dinamikasi tahlili<sup>10</sup>

O'tgan yili jalb qilingan mablag'lar 1,4 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan holda, rekord darajaga yetdi. Biroq, joriy yilda bu rekord yangilanishi mumkin. Chunki, joriy yilning dastlabki olti oyida bank tomonidan O'zbekistonga 892 mln AQSH dollari ajratilgan. Jahon banki tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalalar keng turdag'i tarmoqlarni qamrab olayotgan bo'lsada, ularning qariyb yarmi davlat boshqaruvi, irrigatsiya va sog'liqni saqlash tizimlarini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiyot korporativ sektori tomonidan moliyaviy resurslarga bo'lgan talabi milliy kapital bozori tomonidan yetarli darajada ta'minlanmayotganligi iqtisodiyotda takror ishlab chiqarish jarayonlariga salbiy ta'sir etish orqali iqtisodiy o'sishdagi imkoniyatlardan to'liq foydalanmaslikni ko'rsatadi. Xususan, iqtisodiyotning korporativ sektoriga qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilish orqali moliyalashtirishga doir muammolarni bartaraf etish, investitsions jozibadorlikni oshirish hamda bank kreditlariga muqobil manba sifatida mas'uliyati cheklangan jamiyatlariga korporativ obligatsiyalar huquqini berish lozim. Bu kabi amaliyotni joriy etish xalqaro amaliyotda keng foydalanib kelinayotgan moliyaviy instrumentlardan keng foydalanish orqali kapital bozorini yanada takomillashtirish imkonini beradi.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Toshmatov Sh.A. O'zbekiston xalqaro obligatsiyalarining jahon moliyaviy bozorlarida joylashtirilishi: risk va prognozlar. <http://review.uz/>
2. [https://lex.uz/docs/3836474-O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-iyuldagagi "Tashqi moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 3877-sonli Qarori](https://lex.uz/docs/3836474-O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-iyuldagagi ).
3. [https://lex.uz/docs/4266910-O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-apreldagi "O'zbekiston Respublikasining ilk suveren xalqaro obligatsiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag'lardan samarali foydalanish to'g'risida" PQ-4258-sonli Qarori](https://lex.uz/docs/4266910-O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-apreldagi ).
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 apreldagi PQ-4258-sonli Qarori asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-apreldagi PQ-4258-sonli Qarori asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
6. <https://www.adb.org/-Osiyo taraqqiyot bankingin yillik hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi>.
7. <https://www.adb.org/ru/news/adb-uzbekistan-renew-development-partnership-new-5-year-strategy-ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi>.

<sup>10</sup> [https://uzanalytics.com/iqtisodiedn\\_1-tahlili\\_ma'lumotlari\\_asosida\\_muallif\\_tomonidan\\_tayyorlandi](https://uzanalytics.com/iqtisodiedn_1-tahlili_ma'lumotlari_asosida_muallif_tomonidan_tayyorlandi).

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

#### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatinining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-slonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

